MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI O'RTASIDA YANGI DIPLOMATIK MUHIT SHAKLLANISHIDA O'ZBEKISTON ROLI

O'tkirov Ozodbek Kamilovich
Diplomat universiteti, Xalqaro munosabatlar yo'nalishi
1-bosqich talabasi
Tel: +998 95 066 09 99
Email: ozodbekutkirov803@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23278321

Annotatsiya. Ushbu maqola 2016–2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mintaqasida yangi diplomatik muhit shakllantirishdagi rolini tahlil qiladi. Tadqiqot sifatli dizayn asosida tarixiy-qiyosiy va hujjatli tahlil metodlari orqali amalga oshirilgan. Asosiy topilmalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston mintaqaviy muloqotni tiklashda tashabbuskor kuch sifatida maydonga chiqdi: Maslahat uchrashuvlari formatini yo'lga qo'ydi, qo'shni to'rtta davlat bilan chegara muammolarini hal qildi, savdo-iqtisodiy hamkorlikni sezilarli kengaytirdi hamda "Markaziy Osiyo – 2040" konsepsiyasini shakllantirdi. Mintaqaviy savdo hajmi 2016–2024 yillarda 3 barobar oshib, 11 milliard dollarga yetdi. Maqola O'zbekistonni mintaqaviy integratsiyaning yagona emas, lekin asosiy katalizatori sifatida baholaydi.

Kalit so'zlar: mintaqaviy diplomatiya, Markaziy Osiyo, O'zbekiston tashqi siyosati, Maslahat uchrashuvlari, mintaqaviy integratsiya, "Markaziy Osiyo – 2040", chegara bitimlari, ko'p tomonlama hamkorlik.

Kirish. Markaziy Osiyo mintaqasi geografik jihatdan dengizdan uzoq, tarixan bir-biri bilan chambarchas bog'liq besh davlatdan iborat bo'lgan hudud XX asrning oxirida mustaqillikka erishgach, uzoq yillar davomida o'zaro izolyatsiya, chegara mojarolari, suv-energetika nizolari va geosiyosiy raqobatning og'ir yuki ostida qoldi. 1991-2016 yillarda O'zbekiston o'zining mintaqaviy siyosatida nisbatan yopiq va ehtiyotkor yo'nalishni ushlab turdi: mamlakatning iqtisodiy va harbiy salohiyatiga mos kelmaydigan darajada past diplomatik faollik, qo'shni davlatlar bilan chegara punktlarining yopiqligi, savdo aloqalarining cheklanganligi shu davrning asosiy xususiyatlari edi.[1] Bu holat nafaqat O'zbekistonning o'ziga, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasining yaxlit rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi.

2016 yilning sentyabr oyida O'zbekiston siyosiy hayotida tub burilish ro'y berdi. Ikkinchi Prezident Shavkat Mirziyoyevning hokimiyatga kelishi bilan mamlakatning tashqi siyosiy yo'nalishi keskin o'zgardi. Yangi rahbariyat o'zining birinchi kun tartibiga mintaqaviy hamkorlikni asosiy ustuvorlik sifatida kiritdi. Bunning amaliy dalili shundan iborat bo'ldiki, Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Prezidenti sifatida birinchi xorijiy tashrifi aynan qo'shni Turkmanistonga 2017-yilning 6-martida amalga oshirildi. Bu shunchaki rasmiy muomala belgisi emas, yangi tashqi siyosiy doktrinaning simvolik e'loni edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish marosimidagi nutqida

[1] Laruelle, M., & Peyrouse, S. (2012). *Globalizing Central Asia: Geopolitics and the Challenges of Economic Development*. Routledge.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston barcha davlatlar, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik qilishini bayon etgandi; mazkur davlat tashrifi esa O'zbekiston tashqi siyosatda yaxshi qo'shnichilik munosabatlariga alohida ahamiyat qaratayotganini yaqqol tasdiqladi.[2]

O'tgan sakkiz yil ichida O'zbekiston mintaqaviy diplomatiyaning butunlay yangi arxitekturasini shakllantirish yo'lida bir qator tizimli, izchil va natijador qadamlarni qo'ydi. Ushbu tadqiqot ana shu o'zgarish jarayonini uning sabablari, mexanizmlari va erishilgan natijalari nuqtai nazaridan ilmiy tahlil qilishga bag'ishlangan. O'zbekistonning 2016 yildan boshlab amalga oshirgan faol va ko'p tomonlama mintaqaviy diplomatiyasi Markaziy Osiyoda yangi hamkorlik arxitekturasini shakllantirishda birlamchi katalizator rolini bajardi va bu jarayon mintaqaviy integratsiyaning yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu gipotezaning asosliligini tasdiqlashga xizmat qiluvchi bir qator aniq empirik ko'rsatkichlar mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

Iqtisodiy ko'rsatkichlar. O'zbekistonning mintaqa davlatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi 2016-yildagi 2,4 milliard dollardan 2024-yilda 7,2 milliard dollarga yetdi, qo'shma korxonalar soni esa 1800 dan oshdi (Mirziyoyev, S., 2025, 13-noyabr, president.uz). Bundan tashqari, so'nggi sakkiz yil davomida Markaziy Osiyo mamlakatlarining yalpi ichki mahsuloti qariyb ikki yarim barobar o'sib, 520 milliard dollarga, tashqi savdo hajmi esa ikki karradan ziyod ko'payib, 253 milliard dollarga yetdi.[3]

Diplomatik ko'rsatkichlar. 2017-yildan buyon Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari formati yo'lga qo'yilib, 2025-yilga kelib yettinchi sammit o'tkazildi. 2017-yil mintaqaviy hamkorlik tarixida tub burilish yasadi: mintaqa yetakchilari ko'p yillar mobaynida birinchi marta tashqi vositachilarsiz tizimli va muntazam muloqotni boshladilar.

Chegara masalalarining hal etilishi. 2025-yil mart oyida O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida uch davlatning chegaralari tutashgan nuqta to'g'risidagi Shartnoma va Xo'jand deklaratsiyasining imzolangani tarixiy ahamiyatga molik hodisa bo'ldi. Mintaqa mamlakatlarining mustaqil rivojlanish tarixida ilk bor o'zaro chegaralarning barchasi huquqiy jihatdan rasmiylashtirildi, o'nlab yillar davomida keskinlik manbai bo'lib kelgan masalaga nuqta qo'yildi

Adabiyotlar sharhi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mintaqa davlatlariga amalga oshirgan tashriflari yangi tashqi siyosat doktrinasining eng ko'zga ko'rinuvchi ifodasi bo'ldi. Quyida har bir qo'shni davlat bo'yicha asosiy tashriflar xronologiyasi va ularning ahamiyati rasmiy manbalar asosida ko'rib chiqiladi.

Turkmaniston bilan munosabatlar. Prezident Mirziyoyevning birinchi xorijiy tashrifi 2017-yil 6-martda Ashxobodga strategik jihatdan ramziy ahamiyatga ega bo'ldi. Muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov Qo'shma bayonotni, O'zbekiston Respublikasi va Turkmaniston o'rtasida strategik sheriklik to'g'risidagi shartnomani imzoladilar[4]. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston prezidentining Turkmanistonga jami tashriflari soni 5 martaga yetdi. 2024-yilning iyul oyida Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov ham O'zbekistonga davlat tashrifi bilan keldi. Oliy darajadagi muzokaralar kun tartibidan O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasidagi do'stlik, yaxshi

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti [president.uz], 2017, 6-mart
[3] Mirziyoyev, S., 2025, 13-noyabr, president.uz
[4] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti [president.uz], 2017

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash, ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalari o'rin olgan[5].

Qozog'iston bilan munosabatlar. O'zbekiston va Qozog'iston mintaqaning eng yirik iqtisodiyotlari sifatida strategik ittifoqchilik munosabatlarini tizimli rivojlantirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev 16-sentabr kuni davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi; oliy darajadagi muzokaralarda O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish istiqbollarini muhokama qilish rejalashtirilgan[6]. 2026-yilning aprelida Prezident Mirziyoyev yana Qozog'istonga tashrif uyushtirdi: Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston prezidenti Qosim-Jo'mart To'qayevning taklifiga binoan Ostona shahriga bordi[7]. Prezidentlik saytining ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi uchrashuvlar ko'lami eng yuqori bo'lib, O'zbekiston va Qozog'iston Prezidentlarining Buxorodagi uchrashuvi ikki xalq o'rtasidagi yaqin do'stlik, azaliy qardoshlik, strategik sheriklik va ittifoqchilik mustahkamlanib borayotganining yorqin ifodasi bo'ldi.

Qirg'iziston bilan munosabatlar. O'zbekiston–Qirg'iziston munosabatlarida 2022-yil alohida tarixiy burilish yili bo'ldi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 30-noyabrda O'zbekiston Respublikasi bilan Qirg'iz Respublikasi o'rtasidagi davlat chegarasining alohida uchastkalari to'g'risidagi shartnoma hamda Andijon (Kampirobod) suv omborining suv resurslarini birgalikda boshqarish to'g'risidagi bitimni ratifikatsiya qilishga oid qonunlarni imzoladi[8]. 2016-yildan buyon Prezident Mirziyoyev Bishkekka turli formatdagi yettita davlat tashrifini amalga oshirgan, jumladan 2023-yilning o'zida bitta davlat tashrifi va ikkita amaliy tashrif kuzatilgan (Daryo, 2024, 22-iyul). Qirg'iziston rahbariyati O'zbekiston Prezidentining mintaqaviy vazifasini rasman e'tirof etdi. Qirg'iziston tashqi ishlar vaziri Jeenbek Kulubayev Shavkat Mirziyoyevni Markaziy Osiyo davlatlarini bir-biriga yaqinlashtiruvchi yetakchilardan biri deb atadi[9]. Prezident Japarov esa Mirziyoyevning ikki davlat chegara masalasidagi vositachilik rolini maxsus qayd etib: "Bu masalada O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o'rni juda katta bo'ldi. U bizni fursatni boy bermay, o'zaro kelishuvga erishish kerakligiga ishontirdi" dedi. Bundan tashqari, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov: "Yangi O'zbekistonning barpo etilishi va rivojlanishi, mamlakatda bugun amalga oshirilayotgan tub islohotlar Prezident Shavkat Mirziyoyevning faoliyati bilan chambarchas bog'liq" - deb ta'kidladi[10].

Tojikiston bilan munosabatlar. O'zbekiston va Tojikiston o'rtasida ikki tomonlama munosabatlar tiklanish jarayoni 2017-yildan boshlandi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Tojikiston Respublikasi prezidenti Emomali Rahmon 26-27-mart kunlari davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo'lad bo'lajak oliy darajadagi muzokaralarda O'zbekiston – Tojikiston do'stlik

---

[5] president.uz, 2024, 12-iyul
[6] president.uz, 2017, "Qozog'iston Prezidenti Toshkentga keldi "16-sentyabr
[7] kun.uz, 2026, "Shavkat Mirziyoyevning Qozog'istonga amaliy tashrifi boshlandi" 21-aprel
[8] president.uz, 2022, "O'zbekiston Prezidenti Qirg'iziston bilan chegara va Andijon suv omboriga oid qonunlarni imzoladi" 30-noyabr
[9] Gazeta.uz 2026 "O'rni juda katta bo'ldi". Sadir Japarov - Shavkat Mirziyoyevning Qirg'iziston va Tojikistonning yarashishidagi roli haqida" 7-yanvar
[10] president.uz, 2022 "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish tarafdoridir" 24 iyul

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

va yaxshi qo'shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari ko'rib chiqiladi (Anhor.uz, 2025). Rasmiy saytda e'lon qilinganidek, O'zbekiston va Tojikiston Prezidentlarining Toshkent va Buxoroda o'tgan sermahsul uchrashuvlari asrlik do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va o'zaro hurmat rishtalarini mustahkamlashda yana bir muhim qadam bo'ldi.[11] Tojikiston bilan munosabatlardagi yana bir tarixiy yutuq esa jami uch marta uyushtirilgan rasmiy tashriflar (president.uz) asosida qo'lga kiritildi va 2025-yil martida uch davlat chegarasi tutashuv nuqtasi to'g'risidagi shartnomaning imzolangani bilan o'z mantiqiy kulminatsiyasiga erishdi.

Ikki tomonlama tashriflar bilan bir vaqtda O'zbekiston ko'p tomonlama mintaqaviy mexanizmlarni shakllantirishda ham hal qiluvchi rol o'ynadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Dushanbe shahrida o'tkazilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining beshinchi Maslahat uchrashuvida ishtirok etdi (Uzbekistan.de, 2023). 2025-yilning noyabr oyida O'zbekiston poytaxti Toshkentda yettinchi Maslahat uchrashuviga mezbonlik qilindi. Ushbu sammitda Prezident Mirziyoyev mintaqaviy hamkorlikning yangi bosqichi uchun yo'nalish belgilab: "Bizning kuchimiz - birlikda, muvaffaqiyat sari yo'limiz – do'stlik va hamkorlikda. Faqat hamjihat bo'lib, o'zaro hurmat, birdamlik va strategik yondashuvlarga tayanib, ezgu maqsadlarimizga erishishimiz mumkin" - dedi (president.uz, 2025, 16-noyabr). Bugungi kunda Markaziy Osiyo – barqaror o'sish va farovonlik uchun oldimizda yangi imkoniyatlar ochayotgan jadal taraqqiyot va samarali hamkorlik makonidir (Mirziyoyev, S., president.uz, 2025, 16-noyabr) - deb ta'kidladi davlat rahbari. O'z navbatida, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Faxriy nishoni Prezident Mirziyoyevga "mintaqa davlatlari o'rtasidagi do'stlik, qo'shnichilik va o'zaro anglashuvni rivojlantirishdagi alohida xizmatlari uchun" topshirildi (president.uz, 2023).

O'zbekistonning mintaqaviy diplomatiyasini o'rganuvchi ilmiy adabiyotlarni uchta asosiy guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh xorijiy tadqiqotchilar ishlarini qamrab oladi. Starr S.F. va Barne G. (2019) "Markaziy Osiyo yangi diplomatik muhit sari" nomli tadqiqotida O'zbekistonning 2016 yildan keyingi tashqi siyosiy o'zgarishlarini tahlil qilsa-da, iqtisodiy o'lchov ko'rsatkichlari cheklangan tarzda keltirilgan. Cooley A. va Nexon D. (2020) "Exit from Hegemony" asarida mintaqadagi buyuk davlatlar raqobati va kichik davlatlarning manevr qilish strategiyalari ko'rib chiqiladi, ammo O'zbekistonning katalizator rolini ataylab chetlab o'tiladi. Laruelle M. va Peyrouse S. (2012) "Globalizing Central Asia" tadqiqotida mintaqaviy integratsiyaning tarkibiy to'siqlari tahlil qilingan bo'lib, bu asar mavjud muammolarning tizimli tasvirini beradi.

Ikkinchi guruh mahalliy olimlar ishlarini o'z ichiga oladi. Tursunov B.A. (2021) "O'zbekiston tashqi siyosatining yangi vektori" nomli monografiyasida Mirziyoyev davrining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi. Ne'matov A. (2023, ISRS) "Markaziy Osiyo hamkorlik arxitekturasi: yangi shakllanish" maqolasida Maslahat uchrashuvlari formatining institutsional tahlilini beradi. Biroq 2024-2025 yillarning eng yangi voqealari "Markaziy Osiyo – 2040" konsepsiyasi, Xo'jand deklaratsiyasi va O'zbekiston–Qozog'iston Oliy davlatlararo kengashi hali yetarlicha tadqiqot obyektiga aylanmagan.

Uchinchi guruh rasmiy hujjatlar va institutsional manbalar. O'zbekiston Respublikasining "Yangi O'zbekiston" Taraqqiyot strategiyasi (2022-2026), Prezident farmoyishlari, SCO va BMT hujjatlari tadqiqotimizning birlamchi manbalari sifatida xizmat qiladi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, ushbu tadqiqot 2016 yildan 2026 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqaviy

[11] president.uz, 2026, 28-mart

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

diplomatik muhitini shakllantirishdagi tizimli va ko‘p qirrali rolini empirik dalillar asosida tahlil qilishni maqsad qilib qo‘yadi.

Metodologiya. Ushbu maqola sifatli tadqiqot dizayni asosida qurilgan bo‘lib, asosiy tahlil usuli sifatida tarixiy-qiyosiy tahlil va hujjatli tahlil metodlaridan foydalanilgan. Birlamchi manbalar sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti (president.uz), qo‘shni davlatlar hukumatlarining rasmiy bayonotlari, imzolangan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnomalar matnlari, shuningdek, davlat rahbarlarining matbuot anjumanlaridagi stenogrammalar tahlil qilingan. Ikkilamchi manbalar sifatida xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan peer-reviewed maqolalar, ISRS, CABAR.asia va BMT hujjatlari ishlatilgan. Ma’lumotlar tahlilida diskurs tahlili qo‘llanilgan: rasmiy diplomatik nutqlar, shartnoma matnlari va qo‘shma bayonotlardagi asosiy tushunchalar va siyosiy yo‘nalishlar tizimli ravishda o‘rganilgan. Bundan tashqari, O‘zbekistonning beshta qo‘shni davlat bilan munosabatlari alohida case-study sifatida ko‘rib chiqilib, ularning orasidagi umumiy va farqli jihatlari qiyosiy tarzda baholangan.

Natijalar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2016 yil sentyabr oyida rahbarlikka kelganidan so‘ng, mintaqaviy diplomatiya butunlay yangi shaklni kasb etdi. Har bir qo‘shni davlat bilan munosabatlar endi alohida strategik yo‘nalish sifatida qaralayotgan bo‘lsa-da, ularni birlashtiruvchi umumiy xususiyat muammolarni muzokaralar yo‘li bilan hal qilishga intilish, savdo-iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish va ko‘p tomonlama diplomatik formatlarni shakllantirish o‘z izini yaqqol ko‘rsatmoqda.

Jadval 1.

O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlaridagi asosiy ko‘rsatkichlar (2016-2025)

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Ko'rsatkich	Qozog'iston	Qirg'iziston	Tojikiston	Turkmaniston
Davlat tashriflari soni (2016–2025)	6+	7+	3	5
Savdo hajmi 2016 y. (mln. $)	~2000	~150	~50	~350
Savdo hajmi 2024–2025 y. (mln. $)	~4400	~600	~1000	~1140
O'sish ko'rsatkichi	~2,2x	~4x	~20x	~3,3x
Qo'shma korxonalar soni (2025 y.)	1100+	273	339	~200
Asosiy bitim / hodisa	Ittifoqchilik shartnomasi (2022)	Chegara shartnomasi ratifikatsiyasi (2022)	Strategik sheriklik shartnomasi (2022)	Strategik sheriklik shartnomasi (2017)

Manbalar: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti (president.uz); O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (stat.uz); ISRS tahliliy axborotlari; uzconsulate-aktau.kz rasmiy statistikasi, 2025.

Qozog'iston bilan munosabatlar. O'zbekiston–Qozog'iston munosabatlari mintaqadagi eng yuqori intensivlikka ega ikki tomonlama hamkorlik formatiga aylandi. 1992-yil noyabr oyida diplomatik munosabatlar o'rnatilganidan buyon O'zbekiston va Qozog'iston ijtimoiy-siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarda ikki tomonlama hamda ko'p tomonlama hamkorlikning dinamik modelini namoyish etdi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 22-23-mart va 2021-yil 5-6-dekabr kunlari Qozog'istonga davlat tashriflari, shuningdek, Qozog'iston Prezidenti Qasim-Jomart Toqaevning 2019-yil 14-15-aprel va 2022-yil 21-22-dekabr kunlari O'zbekistonga amalga oshirgan davlat tashriflari yangi bosqichdagi o'zaro hamkorlik uchun kuchli turtki bo'ldi (uzbekistan.org.ua, 2024). Savdo ko'rsatkichlari jihatidan, 2023-yilda O'zbekiston–Qozog'iston savdo hajmi 4,4 milliard AQSH dollarini tashkil qildi; hozirda O'zbekistonda 1 250 dan ortiq Qozog'iston korxonasi, Qozog'istonda esa o'zbek kapitali ishtirokida 1 400 dan ortiq kompaniya faoliyat ko'rsatmoqda (uzbekistan.org.ua, 2024). 2025-yilning yanvar–avgust oylariga kelib, o'zaro savdo hajmi 3,03 milliard AQSH dollariga (+15%) yetdi; O'zbekistonda Qozog'iston kapitali ishtirokidagi 1 100 dan ortiq

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

korxona, Qozog'istonda esa 5 500 ga yaqin o'zbek kapitali ishtirokidagi korxonalar faoliyat yuritmoqda (uzconsulate-aktau.kz, 2025). Transport sohasida, 2023 yilda temir yo'l transportida xalqaro tashish hajmi 23,46 million tonna, avtomobil transportida 2,1 million tonna, havo transportida esa 90 ming tonnani tashkil etdi (uzbekistan.org.ua, 2024). 2022-yil dekabr oyida Toshkentda o'tgan sammitda ikki davlat Prezidentlari tashrif doirasida jami 8 milliard dollarlik savdo va investitsiya shartnomalari imzoladi (TRT Uzbek, 2022). Muzokaralar yakunida Shavkat Mirziyoyev: "Umumiy tariximiz, madaniy va ma'naviy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimiz bizni birlashtirib turadi. Qozog'iston O'zbekiston uchun eng yaqin, ishonchli va davr sinovidan o'tgan hamkordir" - deb ta'kidladi (TRT Uzbek, 2022).

Qirg'iziston bilan munosabatlar. O'zbekiston–Qirg'iziston munosabatlarida 30-yillik muammo bo'lib kelgan chegara masalasining hal qilinishi 2022-yilning eng muhim diplomatik natijasi bo'ldi. 2016-yildan buyon Prezident Mirziyoyev Bishkekka turli formatdagi ettita davlat tashrifini amalga oshirgan, jumladan 2023-yilning o'zida bitta davlat tashrifi va ikkita amaliy tashrif kuzatilgan (Daryo, 2024). Chegara muammosi yechimi borasida, Prezident Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 30-noyabrda O'zbekiston Respublikasi bilan Qirg'iz Respublikasi o'rtasidagi davlat chegarasining alohida uchastkalari to'g'risidagi shartnoma hamda Andijon (Kampirobod) suv omborining suv resurslarini birgalikda boshqarish to'g'risidagi bitimni ratifikatsiya qilishga oid qonunlarni imzoladi; davlat rahbarlarining siyosiy irodasi bilan ikki qardosh xalq o'rtasidagi hurmat va yaxshi qo'shnichilik mustahkamlanib, 30-yildan beri hal bo'lmagan masalalar kelishildi (president.uz, 2022). Qirg'iziston Prezidenti Japarov bu jarayondagi vositachilik rolini yuqori baholab: "Bu masalada O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o'rni juda katta bo'ldi. U bizni fursatni boy bermay, o'zaro kelishuvga erishish kerakligiga ishontirdi" - dedi (Gazeta.uz, 2026).

Iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha, 2025-yilning yanvar–avgust oylarida o'zaro savdo hajmi 600 million dollarga yaqinlashdi (+12–13%), O'zbekiston eksporti oshdi, Qirg'izistondan import esa qariyb uchdan birga ko'paydi (uzconsulate-aktau.kz, 2025). 2023-yilda esa Prezidentlar Mirziyoyev va Japarov "2023–2025-yillarga mo'ljallangan strategik savdo-iqtisodiy sheriklik dasturi"ni, shuningdek, energetika, qishloq xo'jaligi va sanoatning asosiy tarmoqlarida yaqin hamkorlik qilish to'g'risidagi bitimlarni imzoladilar (Daryo, 2024).

Tojikiston bilan munosabatlar. O'zbekiston–Tojikiston munosabatlarining normalizatsiyasi Mirziyoyev davrining eng keskin sifat o'zgarishlaridan biri sifatida baholanadi. 2016-yilgacha ikki davlat o'rtasida havo qatnovi to'xtagan, chegara punktlari yopiq, savdo hajmi minimal darajada edi. 2017-yildan boshlab bu holat tubdan o'zgardi. Savdo va investitsiya ko'rsatkichlari bo'yicha, o'zbek-tojik korxonalari soni 2016-yildagi 34 tadan 2023-yilda 339 tagacha ya'ni 10 barobar ko'paydi. 2016-yildan 2023-yilgacha ikki mamlakat o'rtasidagi temir yo'l transportida yuk tashish hajmi 25 barobardan ziyodga 300 ming tonnadan 8,5 million tonnagacha hamda avtomobil transportida yuk tashish hajmi 2 barobarga, 1,5 million tonnagacha oshdi (ISRS, 2024). 100 million dollarlik ustav kapitaliga ega O'zbekiston–Tojikiston qo'shma investitsiya kompaniyasi qo'shma ishlab chiqarishlar uchun "ko'prik" vazifasini bajarmoqda (uzconsulate-aktau.kz, 2025). 2022-yil iyun oyida imzolangan bitimlar doirasida 1 milliard dollarlik yangi bitim va shartnomalar imzolangani mamnuniyat bilan qayd etildi; qo'shma korxonalar soni 10 karra oshdi (Kun.uz, 2022).

Turkmaniston bilan munosabatlar. Turkmaniston an'anaviy ravishda mintaqaning eng yopiq va ehtiyotkor diplomatiyasiga ega davlati O'zbekiston bilan munosabatlarni sezilarli darajada chuqurlashtirdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Prezidenti sifatida birinchi xorijiy tashrifi aynan Turkmanistonga 2017-yilning 6-martida amalga oshirildi; muzokaralar yakunida ikki davlat o'rtasida strategik sheriklik to'g'risidagi shartnoma imzolandi (president.uz, 2017). Mirziyoyevning Turkmanistonga jami tashriflari soni 5 martaga yetdi (president.uz, 2025).

Iqtisodiy natijalar bo'yicha, 2024-yilda o'zaro savdo hajmi 1,14 milliard dollardan oshdi; energiya resurslari importi sezilarli o'sish qayd etdi; "Shovot–Dashoguz" chegaraoldi savdo zonasi shakllanmoqda, umumiy yuk aylanmasi 1,11 million tonnani tashkil etdi; O'zbekistonda turkman kapitali ishtirokidagi 200 ga yaqin korxona qurilish materiallari, mebel, to'qimachilik va qishloq xo'jaligi sohalarida faoliyat yuritmoqda (uzconsulate-aktau.kz, 2025).

Ko'p tomonlama mexanizmlar. Ikki tomonlama tashriflar bilan parallel ravishda, O'zbekiston mintaqaviy ko'p tomonlama formatning shakllanishida tashabbuskor rolini o'ynadi. 2017-yildan buyon yettita Maslahat uchrashuvlari o'tkazildi. 2022-yilda davlat rahbarlari tomonidan Markaziy Osiyo davlatlarining ko'p tomonlama formatlar doirasidagi hamkorligi konsepsiyasi tasdiqlandi; 2024-yilda Ostona sammitida qabul qilingan "Markaziy Osiyo - 2040" mintaqaviy kooperatsiyani rivojlantirish konsepsiyasi muhim dasturiy hujjatga aylandi (president.uz, 2025). 2023-yilda Dushanbe shahrida o'tkazilgan beshinchi Maslahat uchrashuvida davlat rahbarlarining kelishuvlarini tayyorlash va amalga oshirishning doimiy mexanizmi sifatida Milliy muvofiqlashtiruvchilar kengashini ta'sis etish to'g'risida qaror qabul qilindi (president.uz, 2025).

Mintaqaviy iqtisodiy ko'rsatkichlar ham bu formatning samaradorligini tasdiqlamoqda: so'nggi sakkiz yil davomida Markaziy Osiyo mamlakatlarining yalpi ichki mahsuloti qariyb ikki yarim barobar o'sib, 520 milliard dollarga, tashqi savdo hajmi esa ikki karradan ziyod ko'payib, 253 milliard dollarga yetdi; mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro savdo hajmi 2 marta oshib, qariyb 11 milliard dollarga, o'zaro investitsiyalar esa 5,6 barobarga yetdi (Mirziyoyev, S., president.uz, 2025, 13-noyabr). 2025-yil noyabrida Toshkentda bo'lib o'tgan yettinchi sammitda Prezident Mirziyoyev muhim baholash berdi: "Bugungi kunda Markaziy Osiyo – barqaror o'sish va farovonlik uchun oldimizda yangi imkoniyatlar ochayotgan jadal taraqqiyot va samarali hamkorlik makonidir" (president.uz, 2025, 16-noyabr).

Chegara va suv-energetika muammolarining hal etilishi. Mintaqaviy diplomatiyaning eng konkret va o'lchab bo'ladigan natijasi chegara muammolarining hal qilinishidir. Hududiy masalalar uzil-kesil hal etildi, chegara punktlari ochildi, suv-energetika sohasida o'zaro manfaatli hamkorlik yo'lga qo'yildi, transport aloqalari qayta tiklandi (president.uz, 2025). Xususan, 2025-yil mart oyida O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida uch davlatning chegaralari tutashgan nuqta to'g'risidagi Shartnoma va Xo'jand deklaratsiyasining imzolangani tarixiy ahamiyatga molik hodisa bo'ldi; mintaqa mamlakatlarining mustaqil rivojlanish tarixida ilk bor o'zaro chegaralarning barchasi huquqiy jihatdan rasmiylashtirildi (president.uz, 2025). Suv-energetika sohasida esa, O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasida Qambarota GES-1 loyihasini birgalikda amalga oshirish to'g'risidagi bitim mintaqaning suv-energetika resurslaridan birgalikda foydalanish amaliyotida yangi sahifa ochdi (president.uz, 2025).

Muhokama. Maqola boshida ilgari surilgan gipoteza O'zbekistonning faol mintaqaviy diplomatiyasi yangi hamkorlik arxitekturasining shakllanishida birlamchi katalizator rolini bajardi empirik ma'lumotlar asosida qisman tasdiqlandi va qisman aniqlashtirishni talab qiladi.

Bir tomondan, rasmiy hujjatlar, statistika va davlat rahbarlarining bayonotlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston 2016-yildan beri mintaqaviy muloqotni boshlash, Maslahat uchrashuvlari formatini yo'lga qo'yish, chegara muammolarini hal qilishga tashabbuskorlik ko'rsatish hamda mintaqaviy investitsiya

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

va savdo muhitini faollashtirish borasida boshlovchi rolini o‘ynadi. 2017-yil mintaqaviy hamkorlik tarixida tub burilish yasadi: mintaqa yetakchilari ko‘p yillar mobaynida birinchi marta tashqi vositachilarsiz tizimli va muntazam muloqotni boshladilar; bu ishonchga, ochiqlik va umumiy manfaatlarni anglashga asoslangan yangicha siyosiy tafakkur ramziga aylandi (president.uz, 2025). Biroq katalizator tushunchasi bir tomonlama emas. O‘zbekistonning faolligi boshqa davlatlarning Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston o‘z ichki islohotlari va siyosiy irodasi bilan uyg‘unlashgan taqdirdagina samara berdi. Xususan, Qirg‘iziston tashqi ishlar vaziri Jeenbek Kulubayev Shavkat Mirziyoyevni Markaziy Osiyo davlatlarini bir-biriga yaqinlashtiruvchi yetakchilardan biri deb atadi, bu ta’rif o‘zi aytarli: “katalizator” emas, “yaqinlashtiruvchi” ya’ni O‘zbekistonning roli qolgan davlatlarning ishtiroki va intilishisiz to‘liq amalga oshmas edi. Shu ma’noda, gipotezani yanada aniq tarzda quyidagicha ifodalash maqsadga muvofiq: O‘zbekiston mintaqaviy diplomatik muhitning shakllanishida asosiy, lekin yagona bo‘lmagan harakatlantiruvchi kuch sifatida maydonga chiqdi.

“Ochiq eshiklar” siyosatining ilmiy adabiyotlar bilan taqqosi. Laruelle va Peyrouse (2012) o‘z tadqiqotlarida Markaziy Osiyodagi integratsiya jarayoniga to‘sqinlik qiluvchi omillar sifatida uchta asosiy to‘siqni sanab o‘tishgan: suverenitet talqinidagi farqlar, iqtisodiy raqobat va siyosiy ishonchsizlik. Ushbu tadqiqot natijalariga qaraganda, O‘zbekiston aynan shu uch to‘siqni bosqichma-bosqich bartaraf etishga urinib keldi diplomatik tashriflar orqali ishonch muhitini shakllantirish, ikki tomonlama savdo bitimlarini iqtisodiy raqobat o‘rniga hamkorlikka yo‘naltirish va chegara muammolarini muzokaralar yo‘li bilan hal qilish. Cooley va Nexon (2020) ta’kidlaganidek, kichik davlatlar buyuk kuchlar raqobatidan manevr maydoni sifatida foydalanadi O‘zbekiston ham bu mantiqqa muvofiq, bir vaqtning o‘zida Rossiya, Xitoy va G‘arb bilan munosabatlarni saqlagan holda mintaqaviy mustaqil rolini mustahkamlashga intildi. Bu, aslida, yangi “ko‘p vektorli” strategiyaning amaliy namunasidir.

Ayni paytda, Starr va Barne (2019) mintaqaviy hamkorlikka siyosiy bo‘shliq ya’ni hech bir tomon to‘siq bo‘lmaydigan qulay sharoit kerak deb hisoblagan. 2016–2026 yillar orasida bunday sharoit bir qator omillar birikmasidan yuzaga keldi: O‘zbekistondagi siyosiy almashinuv, Qirg‘izistondagi hokimiyat o‘zgarishi (2020–2021), pandemiyadagi o‘zaro qo‘llab-quvvatlash zarurati va Rossiya–Ukraina urushining mintaqaga ta’siri bularning barchasi o‘zaro yaqinlashuvni tezlashtirdi.

O‘zbekistonning mintaqaviy diplomatiyasi barcha sohalarda bir xil darajada muvaffaqiyat qozonmadi. Quyidagi jadval erishilgan natijalar va mavjud cheklovlarni qiyosiy tarzda ko‘rsatadi.

Jadval 2.

O‘zbekistonning mintaqaviy diplomatiyasi: natijalar va cheklovlar qiyosiy tahlili (2016–2026)

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Soha	Erishilgan natijalar	Mavjud cheklovlar
Chegara masalalari	Barcha 4 qo'shni davlat bilan chegara huquqiy rasmiylashtirildi; 2025-yil mart - uch davlat tripoint shartnomasi	Demarkatsiya ishlari hali to'la tugallanmagan
Savdo-iqtisodiyot	Mintaqaviy savdo hajmi 2x ga oshdi; O'zbekiston–Qozog'iston: 4,4 mlrd $; O'zbekiston–Tojikiston: ~1 mlrd $	Mintaqaviy ulush umumiy tashqi savdoda 2022–2023 yillarda 16,5%dan 12,8%ga tushdi
Transport	O'zbekiston–Tojikiston: temir yo'l tranziti 25x o'sdi; "Markaziy Osiyo–2040" transport yo'laklari konsepsiyasi	XQO (Xitoy–Qirg'iziston–O'zbekiston) temir yo'li hali qurilmagan
Suv-energetika	Qambarota GES-1 uch tomonlama bitimi; O'zbekiston pozitsiyasi yumshatildi	Orol dengizi muammosi hali global miqyosda hal etilmagan
Ko'p tomonlama format	7 ta Maslahat uchrashuvlari; "Markaziy Osiyo–2040" konsepsiyasi; Milliy muvofiqlashtiruvchilar kengashi	Institutsional mexanizm hali to'liq integratsiyaga erishmagan
Xavfsizlik	Mintaqaviy pozitsiyalar uyg'unlashdi; Afg'oniston masalasida birgalikdagi yondashuv	Afg'onistondagi beqarorlik mintaqaga bevosita ta'sir ko'rsatishda davom etmoqda
Madaniy diplomatiya	Hududlararo forumlar; yoshlar siyosati bitimlari; ta'lim almashinuvi	Xalq diplomatiyasi davlat tashriflari sur'atidan orqada qolmoqda

Manbalar: president.uz; ISRS tahliliy axborotlari; Gazeta.uz; Daryo.uz; uzconsulate-aktau.kz (2025).

Xulosa. Ushbu maqola 2016–2026 yillarda O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqaviy diplomatiyasidagi rolini tarixiy-qiyosiy tahlil va hujjatli tahlil metodlari orqali o'rganib, quyidagi asosiy topilmalarga erishdi. Birinchi topilma: O'zbekiston mintaqaviy diplomatiyaning yangi bosqichiga o'tishda tashabbuskor va harakatlantiruvchi kuch sifatida ish tutdi. Shavkat Mirziyoyevning Prezidentlik lavozimiga kirishidan keyingi birinchi xorijiy tashrifi (Turkmaniston, 2017-yil 6-mart) va undan keyin o'tkazilgan yigirmadan ortiq ikki tomonlama davlat tashriflari bu yo'nalishning izchilligidan dalolat beradi. Ikkinchi topilma: 2017 yildan buyon yetti marta o'tkazilgan Maslahat uchrashuvlari formati va 2024 yilda qabul qilingan "Markaziy Osiyo–2040" konsepsiyasi mintaqaviy hamkorlikni yangi institutsional asosga qo'ydi. O'zbekiston prezidenti 2024 yilda mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro savdo hajmi 10,7 milliard dollarga yetgani, investitsiyalar hajmi esa 17 foizga oshganini ta'kidladi va Markaziy Osiyo davlatlari o'zaro savdoni 1,5–2 barobarga oshirishga qodir, deb baholadi Gazeta (Gazeta.uz, 2025). Uchinchi topilma: Chegara va suv-energetika muammolari ilgari mintaqaviy

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

barqarorlikning eng og'riqli nuqtalari O'zbekiston tashabbusi va vositachilik faolligi tufayli hal qilindi yoki sezilarli darajada yumshatildi. Qirg'iziston prezidenti Japarovning e'tirofi bu jihatning eng aniq ifodasidir. To'rtinchi topilma: Mintaqaviy savdo va investitsiya ko'rsatkichlari amaliy natijalarni tasdiqlaydi O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan umumiy savdo hajmi 2016 yildagi 2,4 milliard dollardan 2024 yilda 7,2 milliard dollarga yetdi, qo'shma korxonalar soni esa 1 800 dan oshdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti [president.uz]. (2017, 6-mart). O'zbekiston va Turkmaniston strategik sherik davlatlar. https://president.uz/oz/lists/view/292
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti [president.uz]. (2017, 16-sentyabr). Qozog'iston Prezidenti Toshkentga keldi. https://president.uz/oz/lists/view/1037
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti [president.uz]. (2022, 30-noyabr). O'zbekiston Prezidenti Qirg'iziston bilan chegara va Andijon suv omboriga oid qonunlarni imzoladi. https://president.uz/oz/lists/view/5745
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti [president.uz]. (2022). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish tarafdoridir. https://president.uz/oz/lists/view/5374
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti [president.uz]. (2023). O'zbekiston Prezidenti Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Faxriy nishoni bilan taqdirlandi. https://president.uz/oz/lists/view/7457
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti [president.uz]. (2024, 12-iyul). Turkmaniston Prezidenti davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'ladi. https://president.uz/oz/lists/view/5331
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti [president.uz]. (2025, 13-noyabr). Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida. https://president.uz/oz/lists/view/8653
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti [president.uz]. (2025, 16-noyabr). O'zbekiston Prezidenti yangi formatdagi mintaqaviy hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarini ko'rsatib o'tdi. https://president.uz/oz/lists/view/8675
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti [president.uz]. (2026, 28-mart). O'zbekiston va Tojikiston Prezidentlarining Toshkent va Buxorodagi uchrashuvlari asrlik do'stlik rishtalarini mustahkamladi. https://president.uz/oz
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti [president.uz]. (2026, 12-aprel). O'zbekiston va Qozog'iston Prezidentlarining Buxorodagi uchrashuvi. https://president.uz/oz
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti [president.uz]. (2018, 5-aprel). O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda uning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida. https://president.uz/oz/lists/view/1623
12. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi [stat.uz]. (2024). O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi: 2023 yil yakunlari. https://stat.uz/uz
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti [isrs.uz]. (2024). O'zbekiston va Tojikiston: strategik sheriklik va ittifoqchilikni mustahkamlash yo'lida. https://isrs.uz/oz/maqolalar/uzbekistan-i-tadzikistan

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

14. O'zbekiston Respublikasining Aktau shahridagi Bosh konsulligi [uzconsulate-aktau.kz]. (2025). Markaziy Osiyo: jadal rivojlanayotgan mintaqa va yangi ufqlar. https://uzconsulate-aktau.kz/uz/2025/markaziy-osiyo-jadal-rivojlanayotgan-mintaqa-va-yangi-ufqlar/
15. O'zbekiston Federatsiyasi Berlindagi elchixonasi [uzbekistan.de]. (2023). O'zbekiston Prezidenti Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligi istiqbollari bo'yicha qator takliflarni bildirdi. https://www.uzbekistan.de/frontend/web/news/179?language=uz
16. Cooley, A., & Nexon, D. (2020). Exit from hegemony: The unraveling of the American global order. Oxford University Press.
17. Laruelle, M., & Peyrouse, S. (2012). Globalizing Central Asia: Geopolitics and the challenges of economic development. M.E. Sharpe.
18. Ne'matov, A. (2023). Markaziy Osiyo hamkorlik arxitekturasi: yangi shakllanish. ISRS Tahliliy Axborot, 4(12), 15–29. https://isrs.uz
19. Starr, S. F., & Barne, G. (2019). Central Asia toward a new regional order: Implications for U.S. strategy. Central Asia-Caucasus Institute & Silk Road Studies Program.
20. Tursunov, B. A. (2021). O'zbekiston tashqi siyosatining yangi vektori: 2016–2021 yillar. O'zbekiston Xalqaro munosabatlar universiteti (UWED) nashri.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.